

## O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI

*Jumamuratova Manzura Jalgashovna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani*

*31-sonli umumta'lim maktabining*

*O'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbek tili o'qitish metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbek tili, o'qitish metodikasi, ta'lim jarayonini, zamonaviy texnologiyalar, malaka, ko'nikma, metod.

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratildi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Davlat ta'lim standartlari”ning joriy qilinishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi. Bu hujjatlarda ona tili ta'limi oldiga ham qator talablar qo'yildi. Shu asosda ona tili dastur va darsliklari ham yangilandi. Yangilangan ona tili darsliklarining ikki avlodi nashr qilindi va o'qitishga joriy etildi. Ona tili o'qitishga bo'lgan qarashlar, talablar o'zgardi. Darsliklar ana shu talablar asosida tuzildi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida boy tajriba to'plagan bo'lsa-da, bu fanning o'qitilishi bilan bog'liq bir qator muammolar ham yuzaga keldi. Buning sababi shundaki, ta'lim jarayoniga bir qator zamonaviy texnologiyalar kirib keldi va kirib kelmoqda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darsliklari yangilandi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darsliklar yaratildi. Bular bilan bog'liq qarashlar va tahlillar, uslubiy ko'rsatmalar o'zbek tili o'qitish metodikasining o'rganish obyektiga aylanishi kerak. Shu ma'noda bu fanning mazmunini quydagicha belgilash mumkin: ona tili ta'limining izchil tizimini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil etishiga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etish, shu bilan birga metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o'rgatishning interfaol metodlarini o'zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. Bu fan egallangan bilimlarni pedagogik amalyotga joriy etish, ilg'or pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. O'zbek tili o'qitish metodikasi ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning didaktik asoslarini o'rganadi. [4]Ona tili o'qitish metodikasi fani yosh avlodga ona tilidan nimani?, qancha?, qanday? o'rgatish kerak degan savollarga javob beradi. Til o'qitish metodikasini o'rganish turli ta'lim bosqichlariga mos, qulay metodlarni izlash, tanlash, amaliyotda qo'llay bilishdir. O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy – ijodiy

tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o'quvchilarda milliy istiqloq g'oyasini shakllantirish va talaba shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. Til o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til meyorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan, bir ma'noni turli holatlarda berish ko'nikmasi shakllangan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir. O'zbek tili o'qitish metodikasi fani o'zining nazariy asoslariga va ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Bular quyidagilar: 1. Kuzatish. Tilshunos va metodist olimlar ilmiy anjumanlarda, vaqtli matbuotlarda, berib borilayotgan uslubiy maqolalarni, pedagogik o'qishlarda o'qilayotgan ma'ruzalarni o'qib va eshitib, kuzatib boradilar, zamonaviy dars namunalari kuzatib, ulardan tegishli xulosalar chiqaradilar. Bu usul orqali ona tili o'qitish bilan bog'liq muammolar o'rgatiladi, yangicha qarashlar va metodlar aniqlanadi.

2. Tajriba o'tkazish. Metodist – olimlar o'z ilmiy tadqiqotlari yuzasidan erishilgan natijalar haqida ilmiy anjumanlarda o'rtoqlashadilar, o'zlari ilgari surayotgan, qo'llamoqchi bo'lgan metodlarini asosli va ishonchli mezonlar asosida ma'lum maktab yoki akademik litseylarda tajribadan o'tkazadilar. Natijalarni tahlil qiladilar. Bu usul tavsiya qilinayotgan ilmiy va uslubiy farazlarning ishonchliligini, asosli ekanligini isbotlashga zamin yaratadi.

3. Test o'tkazish. Bu usul orqali o'quvchilarning nazariy bilimlari, ko'nikma va malakalari o'rganiladi. Test savollari o'tkazish o'quvchi va talabalarning bilimi, egallagan amaliy ko'nikmalari haqida umumlashgan xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

4. Anketa va savol varaqalari tarqatish. Bu usul orqali o'qituvchi va o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabati, qiziqishlari va istaklari o'rganiladi.[3]

5. Metodik merosni o'rgatish. Ona tilini o'qitish tarixi qadimgi davrlarga borib taqalsa-da, uni o'qitish metodikasi uzoq tarixga ega emas. O'tmishda yashab ijod etgan Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Navoiy kabi ijodkorlar asarlarida ta'lim-tarbiya bilan, o'qitish bilan bog'liq fikrlar mavjud bo'lsa-da, aynan ona tilini qay usulda o'qitish bilan bog'liq fikrlar uchramaydi. Al-Xorazmiyning “Sezish orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish bu haqiqatdir”, Abu Nasr Forobiyning “Bilim, ma'rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim - tarbiya o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim” degan fikrlari o'zbek tili o'qitish metodikasida ham bosh mezon vazifasini o'taydi.

XX asr boshlariga kelib an'anaviy o'qitish usullari yoniga Yevropacha o'qitish usullari ham kelib qo'shildi. Mahalliy ziyolilardan Fitrat, Munavvar qori, Hamza, A.Avloniy, Qori Niyozov, Qayum Ramazon, Murod Shams, Majid Qodiriy kabilar darslik va qo'llanmalar yaratishda faol ishtirok etdilar. 1940-yillarda S.A.Fvesaloniskiyning “Ona tili o'qitish metodikasi” qo'llanmasi bosilib chiqdi.

Qo'llanmada nutq o'rtirish va insho masalalariga keng o'rin berilgan, morfologiya va sintaksis o'qitish metodikasiga alohida e'tibor berilmagan. 40–yillardan boshlab o'zbek olimlari til o'qitish muammolari bilan bog'liq tadqiqot ishlari olib bora boshladilar. 1944 yilda M.Shams “Orfografiya o'qitish metodikasi”, K.Xayrullayev “Tipik orfografik xatolar va ularni bartaraf etish” mavzusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishdi. M.Shams 1950-yilda “O'zbek tili o'qitish metodikasi” qo'llanmasini nashr ettirdi. 1952- yilda esa “O'zbek tili o'qitish metodikasi”ning 1-qismi F.Kamol tahriri ostida nashrdan chiqdi. 1960-yilda H.Rustamovning “Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi”, 1963-yilda N.Abdurahmonovning “O'zbek tili o'qitish metodikasi” kitoblari nashr ettirildi. [2]1975-yilga kelib esa ancha mukammal darslik Y.G'ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedovlar tomonidan yaratildi. Bu darslik ham “O'zbek tili o'qitish metodikasi” deb nomlanadi. Ushbu darslik hozirgi davrgacha amalda qo'llanib kelindi. 1960-80-yillar davomida metodika bo'yicha ishlar ko'lami ko'paydi. Hozirgi davrda ham ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy – tadqiqotlar keng olib borilyapti. O'zbek tili o'qitish metodikasi birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog'liq. Maktablarda o'qitiladigan ona tili predmetining ilmiy asosini va mazmunini, dastavval til haqidagi fan belgilab beradi. Ona tili o'qitishning to'g'ri tashkil etilishi va samarali bo'lishi til to'g'risidagi lingivistik xulosalarning ilmiy va aniq bo'lishiga bog'liq. Ona tili o'qitish metodikasini va uning taraqqiyotini tilshunoslik fanisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan ham bog'liq holda ish olib boradi. Pedagogika ta'lim - tarbiya prinsplarini belgilab beruvchi fandır. Ona tili darslarida ham ta'lim prinsplari qo'llanadi. Pedagogika fanining didaktika qismi ona tili o'qitish metodikasining nazariy asosi hisoblanadi, Ona tili o'qitish metodikasi didaktikasining hamma prinsplariga tayanadi. O'qituvchi o'z o'quvchilarining psixologik qobiliyatlarini o'rganishi, ona tili materiallarini tushuntirishda ularni hisobga olishi zarur. O'qituvchi o'z faniga nisbatan o'quvchilarda qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb eta olishi, shu materialni esda saqlab qolish yo'llarini qo'llashi lozim. Bu ishlarning barchasi ona tili o'qitish metodikasining psixologiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi.[1]

### **Xulosa:**

O'zbek tili o'qitish mazmuni. Ta'lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi. Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada 4 ta muhim tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshiriladi.

1.Talabalar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi (til fanlari, tushunchalar , qoidalar va ta'riflar tizimi).

2.Tanlangan ilmiy – nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi.

3. Talabalarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ilmiy – ijodiy darajada bo'lishi mumkin.

4. Talaba va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi ona tili o'qitish mazmuni fonetika, leksikologiya, grammatika, uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish, ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuhammedov R. "Pedagogik texnologiyalar"[1]
2. Ona tili darsligi 5-sinf. N. Mahmudov, A. Nurmonov. Toshkent-2009[2]
3. Sh. Rahmatullayev hozirgi o'zbek adabiy tili[3].
4. Ona tili 7-sinf darslik N. Mahmudov, A. Nurmonov.[4]